

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EVRISTIK-
IZLANUVCHANLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-
METODOLOGIK ASOSLARI**

Matkarimov M.M

(PMM Ingliz tili fani metodisti)

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining evristik-tadqiqot faoliyatini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari ko'rib chiqiladi. "Evristik faoliyat" tushunchasining pedagogik talqini, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati, shuningdek, tadqiqot faoliyatining bolalar tafakkurini faollashtirish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda evristik yondashuvga asoslangan o'qitish texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini asoslab beradi. O'quvchilarda qiziquvchanlik, mustaqillik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarni evristik topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va ijodiy izlanishga qaratilgan faoliyatlar orqali rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar, ta'lim muassasalari rahbarlari, pedagogik sohadagi tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, evristik yondashuv, qiziquvchanlik, ijodiy fikrlash, mustaqil ta'lim, innovatsion usullar, muammoli vaziyat, o'quv faoliyati, pedagogik jarayon, o'quvchi faolliqi.

Annotation. The article covers the theoretical and methodological foundations of the formation of heuristic-exploratory qualities in primary school students. It analyzes the pedagogical interpretation of the concept of heuristic activity, its importance in the educational process, as well as the role of investigative activity in activating children's thinking and developing independent thinking skills. The author justifies the effectiveness of using teaching technologies based on the heuristic approach at the primary school level, taking into account the age and psychological characteristics of students. The article reveals the possibilities of forming such qualities as inquisitiveness, independence, initiative in students through heuristic tasks, problem situations, and activities aimed at creative search. This article can be useful in practice and theory for primary school teachers, methodologists, heads of educational institutions, and pedagogical researchers.

Key words: primary education, heuristic approach, inquisitiveness, creative thinking, independent learning, innovative methods, problem situation, learning activity, pedagogical process, student activity.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования эвристически-исследовательской деятельности учащихся

начальной школы. Анализируется педагогическая трактовка понятия «эвристическая деятельность», её значение в образовательном процессе, а также роль исследовательской деятельности в активизации мышления детей и развитии навыков самостоятельного мышления. Автор обосновывает эффективность использования технологий обучения, основанных на эвристическом подходе, в начальной школе с учётом возрастных и психологических особенностей учащихся. Раскрываются возможности формирования у учащихся таких качеств, как любознательность, самостоятельность, инициативность, посредством эвристических заданий, проблемных ситуаций и деятельности, направленной на творческий поиск. Статья может быть полезна учителям начальной школы, методистам, руководителям образовательных учреждений, исследователям педагогической сферы.

Ключевые слова: начальное образование, эвристический подход, любознательность, творческое мышление, самостоятельное обучение, инновационные методы, проблемная ситуация, учебная деятельность, педагогический процесс, активность учащихся.

Dunyoda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etish, kichik maktab yoshidan o'quvchilar shaxsini rivojlantirish, ularning qobiliyati, axloqiy va estetik hissiyotlarini tarbiyalash, o'qishga qiziqishi, xohish va istagini, o'zi va o'z atrofini o'rab olgan olamga hissiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan o'quv tuzilmalarini ishlab chiqish, o'quvchining intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashuvchi pedagogik texnologiyalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi davr pedagogikasining ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan konseptual ilmiy izlanishlar predmetini kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiylikning yorqinlashuvi, ixtirochilikka qiziqishi, ertak, hikoya, qo'shiq, musiqaning obrazli mazmunini tezda idrok etishi, ijodiy imkoniyatlarini nazarda tutib belgilanmoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrofmuhitga ongli munosabatini shakllantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'limtarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Shu sababli

zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida evristik tafakkur va izlanuvchanlik tushunchalari markaziy o'ringa chiqmoqda.

Evristik tafakkur – bu shaxsning yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topishi, nostandart fikr yuritish orqali muammolarga innovatsion yechimlar topa olish qobiliyatidir. Bu tushuncha dastlab qadimgi yunon faylasufi Arximed faoliyati bilan bog'liq bo'lib, “Evreka!” (topdim!) degan hayqirig'i bilan mashhur bo'lgan. Bugungi kunda evristik yondashuv pedagogik metod sifatida ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, reflektiv mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantirishda keng qo'llanilmoqda. U, ayniqsa, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy topshiriqlarni bajarish va o'z fikrini asoslay olishga oid mashg'ulotlarda muhim rol o'ynaydi. Bunday tafakkur shakli, ayniqsa, o'quv jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda, ijodkorlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Evristika pedagogik nuqtai nazardan o'quvchi shaxsining faolligi, mustaqilligi, ijodkorligi va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyat usulidir. Bu yondashuvda asosiy diqqat bilimning tayyor shaklda berilishiga emas, balki uni kashf qilish, izlab topish va o'quvchining ichki intellektual resurslarini ishga solishga qaratiladi.

Evristik ta'lim – bu o'quvchining bilishga bo'lgan ichki ehtiyoji asosida quriladigan, muammoli vaziyatlar, savollar, topqirlik talab qiluvchi topshiriqlar orqali fikrlash va muammoni yechish malakalarini shakllantiruvchi ta'limiy jarayondir.

Bu borada biz Evristik yondashuvni pedagogik vazifalarni talqin qilib o'tishimiz kerak:

- **Mustaqil fikrlashni shakllantirish** – O'quvchi o'z fikrini erkin ifodalash, taxmin qilish, asoslash imkoniyatiga ega bo'ladi.
- **Ijodiy yondashuvni rivojlantirish** – Har bir muammo uchun yagona emas, turli yechimlar mavjudligi haqida tushuncha hosil qilinadi.
- **Kuzatish va tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish** – O'quvchi o'z kuzatishlariga asoslanib xulosa chiqaradi.
- **Savol berish va muammo qo'yish madaniyatini shakllantirish** – Evristik o'qitishda savol – asosiy vosita sifatida qaraladi.

An'anaviy o'qitishda o'qituvchi – bilimni yetkazuvchi bo'lsa, evristik yondashuvda u **yo'naltiruvchi, yordamchi, maslahat beruvchi** rolida bo'ladi. O'quvchi o'zini bilishda faol subyekt sifatida his qiladi. Bunday o'qituvchi:

- tayyor bilimni emas, savollarni taklif qiladi;
- o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi;
- noto'g'ri javoblar ustidan emas, fikrlash jarayoni ustidan baho beradi.

“Evristik metod – bu o'quvchilarning faolligiga asoslangan o'qitish usuli bo'lib, unda bilimlar kashf qilinadi, yaratiladi va mustaqil tarzda egallanadi.”

Evristik yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillaridan biri sifatida ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilinmoqda. Bu yondashuv o'quvchining bilim egallash jarayonida passiv emas, faol ishtirokchi bo'lishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faqat tayyor bilimni eslab qolishlari emas, balki bilimni izlab topishlari, kashf qilishlari, tahlil qilishlari va xulosa chiqarishlari – pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi.

Evristik o'qitish o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijodiy tafakkurini faollashtiradi, savol berish va izlanishga qiziqishini kuchaytiradi. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida insonlardan tez o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslasha olish, yangilikka ochiqlik, tanqidiy va ijodiy fikrlash talab etilayotgan bir vaqtda, evristik yondashuv bu kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Pedagog uchun esa bu yondashuv an'anaviy bilim beruvchilik rolidan chiqib, o'quvchini fikrlashga, izlanishga undovchi yo'naltiruvchi, kuzatuvchi, faoliyatni boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritishni taqozo qiladi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan yuqori pedagogik madaniyat, psixologik bilim va metodik tayyorgarlikni talab etadi.

Psixologik nuqtai nazardan evristika – bu inson tafakkurining ijodiy, muammoli vaziyatlarda noan'anaviy, samarali yo'llar bilan yechim topishga yo'naltirilgan shaklidir. Bu tushuncha psixologiyada odatda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatda intuitiv qaror qabul qilish, va kashfiyotga intilish bilan bog'liq holda talqin etiladi.

Evristik tafakkur shaxsning yangi bilimlar hosil qilish, o'z tajribasini tahlil qilish, taxmin qilish, analogiyalar o'rnatish, va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini namoyon qiladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonning tafakkuri oddiy, standart holatlarda asosan reproduktiv, ya'ni oldindan o'rganilgan bilim va algoritmlarni qo'llashga asoslanadi. Biroq muammoli vaziyat yuzaga kelganda, ya'ni oldindan tayyor bilim yoki tajriba yetarli bo'lmagan holatlarda, inson evristik yo'l bilan fikrlay boshlaydi.

Mashhur rus psixologi A.N. Leontyev ta'kidlaganidek, evristik tafakkur insonning intellektual faoliyatidagi eng yuqori bosqichlardan biri bo'lib, u tayyor bilimlarni qo'llash emas, balki yangilik yaratishga qaratilgan kognitiv jarayondir.

Shuningdek, G.S. Altshuller tomonidan ishlab chiqilgan Ijodiy muammolarni hal qilish nazariyasi (TRIZ) doirasida evristika – bu shaxs tomonidan muammoli vaziyatni chuqur tahlil qilish va mavjud tajriba asosida yangi yechimlar ishlab chiqish jarayoni sifatida qaraladi. Pedagogik nuqtai nazardan, o'quvchida ma'lum bir savolga javob yoki topshiriqni bajarish uchun mavjud bilim va tajribalari yetarli bo'lmagan holat bo'lib, u fikrlash faoliyatini kuchaytiradi. Bunday vaziyatda o'quvchi:

- taxmin qiladi;
- mantiqiy izlanadi;

- analogiyalarni izlaydi;
- shaxsiy tajribasini solishtiradi;
- xulosa chiqarishga harakat qiladi.
- Shunday ekan, ta'lim jarayoniga evristik yondashuvni faol joriy etish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki yosh avlodni hayotiy faoliyatga tayyorlashning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.
- **Izlanuvchanlik** esa — bu shaxsning yangi bilim va tajriba orttirishga, mavjud ma'lumotlarni chuqurroq anglashga, o'zini ilmiy va amaliy izlanishlarga safarbar etishga bo'lgan ichki ehtiyojidir. Bu sifat o'quvchining o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasi, bilimga chanqoqligi, savol berish faolligi, tadqiq qilishga bo'lgan intilishi orqali namoyon bo'ladi. Izlanuvchanlik shaxsning hayot davomida o'rganishga tayyor bo'lishi, o'zini-o'zi rivojlantirishga intilishi va kreativlikni namoyon etishda asosiy psixologik tayanch hisoblanadi. Pedagogik psixologiyada evristik va izlanuvchanlik tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular shaxsning kognitiv rivojlanishi, mustaqil tafakkuri, innovatsion faoliyati va kasbiy shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Bu ikki sifatni rivojlantirish, ayniqsa, ta'limning interfaol va o'quvchiga yo'naltirilgan modellari, masalan, muammoli o'qitish, loyihaviy faoliyat, tadqiqot asosida o'qitish va reflektiv yondashuv orqali amalga oshiriladi.
- Mashhur psixolog D.N. Uznadze izlanuvchanlikni shaxsning kognitiv ehtiyojlari bilan bog'lab, uni "bilishga qaratilgan ichki tayyorgarlik holati" deb ataydi. Bu holat insonda yangi ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'lganda faollashadi.
- "Izlanuvchanlik – bu passiv bilim olish emas, balki faol, motivatsiyalangan bilim izlash faoliyatidir".

Pedagogik nuqtai nazardan izlanuvchanlik – bu o'quvchilarning mustaqil ravishda yangi bilimlarni izlash, savollar berish, kuzatish, taxmin qilish, tahlil qilish va xulosa chiqarishga bo'lgan faol, ongli va motivatsiyalangan munosabatidir. Bu faoliyat o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi subyektiv ishtirokini kuchaytiradi va ta'limni shaxsga yo'naltirilgan jarayonga aylantiradi.

Pedagog olimi N.K. Goncharova ta'kidlaydiki, izlanuvchanlik – bu o'quvchilarning bilishga qaratilgan faoliyati bo'lib, u mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu faoliyat bolalarda nafaqat bilimlarni o'zlashtirishni, balki uni yaratishni ham rag'batlantiradi.

Ta'lim jarayonida izlanuvchanlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- **Savol berish:** o'quvchi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha faol savollar beradi;
- **Axborot izlash:** dars mavzusidan tashqarida mustaqil manbalarni o'rganishga harakat qiladi;

- **Tajriba o'tkazish:** o'quvchi hodisani o'zi sinab ko'rish orqali bilimga ega bo'ladi;
- **Tahlil va taqqoslash:** ma'lumotlar ustida mustaqil tahlil ishlari olib boradi;
- **Ijodiy fikr bildirish:** yangi g'oyalar taklif qiladi, alternativ yechimlar topadi;
- **Loyihaviy izlanish:** mustaqil yoki guruhiiy ilmiy-loyiha ishlarida qatnashadi.

Bunday faoliyatlar orqali o'quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida shakllanadi.

Pedagogik amaliyotda o'quvchilarda izlanuvchanlikni shakllantirish uchun quyidagi sharoitlar zarur:

- **Muammoli vaziyatlar yaratish** – o'quvchini izlanishga majbur qiladigan topshiriqlar;
- **Evristik yondashuv** – o'quvchiga to'g'ri javobni bermay, uni o'zi topishga yo'naltirish;
- **Axborotga erkin kirish imkoniyati** – o'quvchini izlanishga undaydigan materiallar;
- **Baholashning motivatsion usullari** – baho emas, izlanish jarayoni qadrlanishi;
- **Shaxsiy qiziqishlar va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash** – har bir o'quvchining o'z yo'nalishida tadqiqot olib borishiga imkon yaratish.

Shu tarzda shakllangan izlanuvchanlik umrbod o'rganishga tayyor shaxsni tarbiyalaydi, bu esa XXI asrda raqobatbardosh bo'lishning asosiy omillaridan biridir.

Bugungi kunda ko'plab ilg'or pedagogik yondashuvlar (konstruktivizm, faol ta'lim, loyiha asosida ta'lim, STEAM, tadqiqotga asoslangan ta'lim) aynan izlanuvchanlikni rivojlantirish g'oyasiga asoslanadi.

Masalan:

- **Konstruktivistik yondashuvda** o'quvchi bilimni passiv qabul qilmaydi, balki uni o'zi yaratadi;
- **Tadqiqotga asoslangan ta'limda** o'quvchi o'qituvchining savoliga emas, o'z qiziqishlariga asoslangan muammoni yechishga harakat qiladi;
- **Evristik metodlar** orqali o'quvchi o'z intellektual izlanishlari orqali xulosalarga keladi.

Evristik tafakkur va izlanuvchanlik shaxsning ijodiy va kognitiv rivojlanishida bir-birini to'ldiruvchi sifatlar bo'lib, ular birgalikda shaxsning mustaqil va samarali o'rganish jarayonini ta'minlaydi. Izlanuvchanlik o'quvchini yangi bilimlarni qidirishga undaydi, evristik tafakkur esa o'sha bilimlarni tahlil qilish va yangi yechimlar ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

Ta'lim jarayonida bu ikki sifatning uyg'un rivojlanishi muammoli vaziyatlarda yechim topish, yangi g'oyalarni yaratish va muammoli fikrlashni shakllantirishda

muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun zamonaviy pedagogika muammoli o'qitish, interaktiv texnologiyalar va loyiha asosida o'qitish usullariga keng e'tibor qaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “ O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son Farmoni – Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
2. Niyozov, Yo. N. (2007). Didaktika va zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: O'qituvchi.
3. Karimova, D. (2019). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Hasanboyeva, N. (2020). Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
5. Леонтьев, А.Н. (1977). Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Наука. УДК 159.9(075.8) ББК 88.4я73. Л 478 Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Смысл; Издательский центр «Академия», 2004.
6. Altshuller, G.S. (1989). Creativity as an Exact Science: The Theory of the Solution of Inventive Problems. New York: Gordon and Breach.
7. Vygotskiy, L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. Том четвертый – Под редакцией Д. Б. Эльконина. Москва: Pedagogika. 1984,